Oʻzbekiston mustaqilligi tiklanganidan soʻng, yoshlarni bu kabi puch gʻoyalar ta'siridan olib chiqish, yangicha qadriyatlar asosida tarbiyalash, muayyan bir tashkilot orqali manfaatlarini himoya qilish, qiziqishlarini qoʻllab-quvvatlash, muammolarini hal qilish, ta'lim-tarbiya jarayonlarida ham oʻziga xos yoshlar bilan ishlovchi tizimni yaratish zarurati yuzaga keldi. Dastavval mamlakat yoshlarini birlashtirish uchun 1991-yilda sobiq "Komsomol" tashkiloti negizida "Yoshlar ittifoqi" tashkiloti tuzilib, "yangi tashkilot" oʻz faoliyatida qator ishlarni amalga oshira boshladi. Jumladan, iqtidorli yoshlarni ragʻbatlantirish borasida ishlar boshlanib, fan va texnika sohasi boʻyicha beriladigan maxsus mukofot joriy qilindi. Yoshlarni ish bilan ta'minlash va oʻz biznesini boshlashga koʻmaklashish maqsadida 300 dan ortiq yoshlar markazlari va korxonalar tuzildi. Tashkilot tashabbusi bilan 1992-yildan "Talabalar jamgʻarmasi" faoliyati yoʻlga qoʻyildi. 1994-yildan tarbiyasi ogʻir, ichki ishlar idoralarida roʻyxatda turuvchi oʻsmirlar uchun harbiy sport oromgohlari tashkil etish tajribasi yoʻlga qoʻyildi. 1995-yildan boshlab esa, "Quvnoqlar va Zukkolar" koʻrik tanlovi tashkil qilindi*[2;61-b][3]. Umuman olganda, "Yoshlar ittifoqi" faoliyat yuritgan davrda oʻtish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan yoshlarga oid davlat siyosatini muvofiqlashtirishga, mamlakatdagi yoshlarning muammolarini oʻrganish, ularni har tomonlama himoyalashga oʻz hissasini qoʻshishga harakat qildi. Yoshlar hukumatning olib borayotgan siyosati tarafdori

[1] Lenin nomidagi butun ittifoq pioner tashkiloti, 1922-yil 19-mayda tuzilgan.
[2] Butunittifoq Leninchi kommunistik yoshlar uyushmasi, 1918-yil 29-oktyabrda tuzilgan.
[3] Moskvada 1961-yilda tashkil qilingan "Клуб весёлых и находчивых" gʻoyasi asosida.

ekanligi, mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohadagi islohotlarni qoʻllab-quvvatlovchi kuch ekanligini tashkilot tomonidan bot-bot taʼkidlangan boʻlsa-da[3], ijtimoiy-iqtisodiy muammolar girdobiga tushib qolgan yoshlarda tashkilotga xayrixohlik, vatanparvarlik tuygʻusining shakllanishini qiyin kechdi. Shuningdek, tashkilot oʻz faoliyatida bir qator toʻsiqlarga uchradi, xato va kamchiliklarga yoʻl qoʻydi. Bunda avvalo, tashkilotning gʻoya va dasturlari toʻliq eskicha boʻlganligini aytish lozim. Chunki "Yoshlar ittifoqi" ning ustavi leninchi kommunistik yoshlar ittifoqining ustaviga asoslangan holda tasdiqlangan edi. Boshqacha aytganda, "Yoshlar ittifoqi" sobiq sovet tuzumidagi yoshlar tashkiloti – "Komsomol" ning gʻoyalarini shunchaki saqlab qolgan. Bunga bir nechta misollar keltirish mumkin. Misol uchun "Yoshlar ittifoqi" tomonidan 1994-yilda chaqirilgan qurultoy mustaqillik davrida yoshlar tashkilotlarining aslida birinchi qurultoyi boʻlsa-da, "negadir" 26-sonli deb raqamlangan. Fikrimizcha, ular oʻzlarini hali-hanuz eski tuzum tashkilotining davomchilari sifatida koʻrishgan. Shuningdek, ustavda belgilangan "Yoshlar ittifoqi" aʼzoligiga qabul qilish, aʼzolarning xatti-harakatlari nazorat qilish, xatolarga yoʻl qoʻygan aʼzolarni kechirmaslik, aʼzolikdan chiqarish, tashkilotning rahbar lavozimlariga nomzodlarni "tanlab olish" masalalari toʻliqligicha "Komsomol" tashkiloti aqidalariga asoslangan edi [4;74-76-b]. Ushbu jihatlar tashkilot oʻz faoliyatida eski kommunistik mafkuradan holi tashkilot sifatida faoliyat yuritishni amalda imkonsiz boʻlganligini bildiradi. "Yoshlar ittifoqi" faoliyatiga iqtisodiy muammolar ham sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Tashkilot faoliyatining moliyaviy asoslari asosan aʼzolardan tushadigan mablagʻlarga bogʻliqligi, tashkilot qoshida tadbirkorlik faoliyati bilan yetarlicha shugʻullanilmaganligi shusiz ham ogʻir boʻlgan iqtisodiy holatni yanada taranglashtirdi. Yoshlar orasida ishsizlik koʻrsatkichlarining oshishi, boshlangʻich tashkilotlar ochilgan mehnat jamoalarida yoshlarga ish haqining oʻz vaqtida toʻlanmasligi kabi holatlar aʼzolik badallarining tashkilot hisob raqamiga tushishini kechiktirgan. Shuningdek, xodimlar bilan ishlash, ularni tanlash, joy-joyiga qoʻyish masalasi ham deyarli hal etilmadi. Tashkilotning quyi tizimlarida oʻsha davr talablariga umuman javob bermaydigan xodimlar rahbar lavozimlariga qoʻyildi. Bu esa yoshlarni muammolari bilan ishlash tizimida jiddiy qiyinchiliklarni vujudga keltirgan [2;63-b]. Rahbar lavozimlarga tayinlanganlarning tarjimai holiga eʼtibor qaratilsa, ularning koʻpchiligi ilgari partiya yoki kommunistik yoshlar tashkilotlarida faoliyat yuritganligini koʻrish mumkin. Boshqa tarafdan, ushbu davrda sotsialistik dunyoqarashdan xoli, bozor munosabatlariga oʻtish tamoyillarini toʻgʻri anglab yetgan, yangicha dunyoqarashga ega xodimlarning mavjud boʻlmaganligini tabiiy holat sifatida qabul qilish lozim.

"Yoshlar ittifoqi" faoliyatida koʻzga tashlangan muammo va kamchiliklar uning faoliyatini tubdan isloh etish, yoshlar tashkilotining tashkiliy huquqiy shaklini qayta koʻrib chiqqan holda tashkil etish ehtiyojini vujudga keltirdi. Aynan shu jihatlarni inobatga olgan holda 1996-yil 17-aprelda Oʻzbekiston yoshlarining "Kamolot" jamgʻarmasiga asos solindi [5]. Korxona, tashkilot, oʻquv yurtlari, mahallar va mehnat jamoalarida jamgʻarmaning jamoatchilik markazlari tuzildi va ular dasturiy maqsadlarni belgilashda toʻla mustaqil ekanligi qayd qilindi.

Oʻzbekiston yoshlarining "Kamolot" jamgʻarmasi ham faoliyatining dastlabki davrida bir qator ishlarni amalga oshirganligini taʼkidlash oʻrinli. Jumladan, 1997-yilda tizimda faoliyat yuritayotgan kadrlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash va yoshlar muammolarini oʻrganish maqsadida "Yoshlar muammolari" instituti ochildi; 1998-yilda "Siz qonunni bilasizmi" koʻrik tanlovi ilk marotaba tashkil etildi; Yoshlar oʻrtasida milliy qadriyatlarni targʻib qilish, maʼnaviy qiyofasini shakllantirish maqsadida qator tadbirlar oʻtkazildi; Yoshlarning huquqiy

madaniyatini yuksaltirish maqsadida qator seminar va oʻquvlar tashkil qilindi; Yoshlar turizmini rivojlantirish uchun maxsus turistik dasturlar amalga oshirildi; Sport-salomatlik sohasida bir qator ishlar jumladan, 1997-yildan “Shunqorlar” harbiy sport musobaqasi yoʻlga qoʻyildi. Shuningdek, 10 ga yaqin sport turlari boʻyicha “Kamolot kubogi” musobaqalari oʻtkazildi. Tadbirkorlik va yoshlar bandligi sohasiga alohida eʼtibor qaratildi. Oʻtkazilayotgan tadbirlarni mablagʻ bilan taʼminlash, yangi ish joylarini tashkil etish, turli sohalarda yoshlarga xizmat koʻrsatishni tashkil etish maqsadida 10 dan ortiq firmalar faoliyati yoʻlga qoʻyildi [2;66-68-b]. Shu bilan birga, “Kamolot bandlik” agentligi, kasb-hunarga yoʻnaltiradigan oʻquv markazlari faoliyati yoʻlga qoʻyilganligi, boʻsh ish oʻrinlari yarmarkalarining oʻtkazilganligini ham alohida taʼkidlash lozim.

Biroq jamgʻarma dastlabki yillarda yuqoridagi kabi qator ishlarni amalga oshirgan boʻlsa-da, keyinchalik uning faoliyatida turli muammolar koʻzga tashlana boshlangan. Jumladan, u ijtimoiy jarayonlardan, taʼlim tarbiya ishlaridan, maʼnaviy hayotdan, jamiyatdagi ijtimoiy muammolardan ajralib qoldi. Shuningdek, ular kundalik turmush tashvishlari bilan oʻralashib qolgan, dunyoqarashi tor, jamiyat hayotida faol ishtirok etmaydigan yoshlar orasiga kirib bora olmadi. Boshqa tarafdan, “Kamolot” yoshlar jamgʻarmasi oʻzini mablagʻ bilan taʼminlaydigan jamoat birlashmasi boʻlgan. Dasturiy vazifalarini bajarish uchun tadbirkorlik orqali mablagʻ topishga majbur boʻlingan. Bu hol jamgʻarma quyi boʻgʻinlarini achinarli holatga olib kelib qoʻygan. Jamoatchilik markazlarining mustaqil faoliyat yuritishi quyi tuzilmalar va boshqaruv organlari oʻrtasidagi aloqalarning uzilishiga olib kelgan. Bularning barchasi, jamgʻarma tizimidan malakali mutaxassislarning ketib qolishiga, xodimlar qoʻnimsizligiga olib kelgan. Tashkilotning “jamgʻarma” deb nomlanishi uning jamiyat tasavvurida moliyaviy koʻmak koʻrsatuvchi xayriya tashkilot sifatida gavdalantirgan. Jamgʻarmaning tashkiliy-huquqiy shakli ijtimoiy fond sifatida belgilanishi uning respublika darajasida yoshlar bilan ishlovchi tashkilot sifatidagi oʻrnini yoʻqolishiga olib kelgan. Jamgʻarmaning taʼsis hujjatlarida aʼzolik toʻgʻrisidagi qoidalarning belgilab qoʻyilmaganligi bois yoshlarda tashkilotga aʼzolik tushunchasi yoʻqolgan [2;69-70-b].

Shu boisdan 2001-yil boshlarida mamlakat yoshlarining navbatdagi tashkiloti “Kamolot” yoshlari ijtimoiy harakatini tuzish boʻyicha tashabbus guruhi ish boshladi. Oʻsha yilning 25-aprel kuni Toshkentda boʻlgan yoshlar qurultoyda oʻzini oʻzi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilot – Oʻzbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati (YoIH) tuzilgan. Ushbu qurultoyda tashkilotning meʼyoriy hujjatlarini pishiq-puxta tayyorlash asosiy vazifa sifatida belgilanganligi, bir qator mamlakatlar (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Rossiya) dagi yoshlar tashkilotlarining ish uslubi va faoliyati oʻrganilganligi qayd etilgan [6]. “Kamolot” YoIH ning asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish, jamiyatda munosib oʻrnini egallashga koʻmaklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning oʻz aql zakovati, kuch-gʻayratini toʻla namoyon etishi uchun zarur shart sharoit yaratib berish, yosh avlodning tayanchi va suyanchi boʻlishdan iborat deb belgilandi. Harakatning Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar boʻlimlari, taʼlim muassasalari, harbiy qismlar, huquq-tartibot organlarida boshlangʻich tashkilotlari tuzilib, 14 yoshdan 28 yoshgacha boʻlgan Oʻzbekiston fuqarolarini oʻz saflarida ixtiyoriy ravishda birlashtirgan holda faoliyat koʻrsata boshladi.

“Kamolot” YoIH ga kelib oʻzidan oldingi yoshlar tashkilotlari faoliyatida duch kelgan moliyaviy qiyinchiliklar birmuncha yechimini topdi, deb hisoblash mumkin. Bunda Oʻzbekiston

yoshlarining “Kamolot” ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamgʻarmasi tuzilib, hisoblangan kichik biznes korxonalari (savdo korxonalaridan tashqari) tomonidan yagona soliq toʻlovi qiymatining 8 foizini ushbu jamgʻarmaga oʻtkazish belgilandi [7]. 2002-yilda “Kamolot” YoIH markaziy kengashi ijroiya qoʻmitasining “Kamolot” stipendiyasi taʼsis etilib, har yili bakalavr, magistr va kursantlarga berib borildi. 2003-yildan “Oʻzbekiston belgisi” koʻkrak nishoni taʼsis etildi [8]. 2004-yildan respublika boʻylab 96 ta ijtimoiy markazlar tashkil etilib, ularda 316 ta toʻgaraklar faoliyat yuritgan. 2005-yildan boshlab esa “Yurt kelajagi” koʻrik tanlovi tashkil etila boshlandi. 2006-yil 29-noyabrda boʻlib oʻtgan “Kamolot” YoIH 5 yillik faoliyatiga tanqidiy baho berildi. Shu sababdan tashkilot keyingi faoliyatida asosan oʻz nufuzini koʻrsatishga harakat qildi. Bu davrda yoshlar tashkilotiga hukumat tomonidan alohida eʼtibor qaratildi [2;78-b]. 2008-yil “Yoshlar” yili, 2010-yil esa “Barkamol avlod” yili deb eʼlon qilinib, alohida davlat dasturlari qabul qilindi. 2005-yildan muddatli harbiy xizmatni oʻtagan va toʻlov-kontrakt boʻyicha oʻqishga kirgan talabalarga “Kamolot” YoIH faoliyatida faol ishtirok etgan taqdirda 35 foiz shartnoma toʻlovi toʻlab berish amaliyoti joriy qilindi [9]. Yoshlarni uy-joy bilan taʼminlash, ularga imtiyozli ipoteka kreditlari berish masalasida “Kamolot” YoIH oʻz oʻrniga ega boʻla boshladi. Bunda “Kamolot” YoIH Markaziy kengashi, Moliya vazirligi va Ipoteka bank ATB hamkorligida ishlab chiqilgan tavsiya asosida uy-joyga muhtoj yosh oilalarni aniqlash va ularga imtiyozli kreditlar olishlari uchun tavsiyanomalar berila boshlandi [10]. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 8-sentyabrdagi qarori [11] boʻyicha hududlarda koʻp qavatli uylar qurish va yosh oilalarga imtiyozli kredit asosida berish ishlari olib borilib, 2014–2015-yillarda 2078 ta oilaga mazkur uylar topshirildi. Shuni taʼkidlash lozimki, bunda “Kamolot” YoIH yosh oilalarga toʻgʻridan-toʻgʻri uy bermagan, balki “Kamolot” uylari sifatida barpo etilayotgan koʻp qavatli uylarga nomzodlarni tanlab berishda tavsiyanoma bergan. Kamolot YoIH qoshida 2001-yilda “Kamalak” bolalar tashkiloti tashkil topgan. Tashkilot 7 yoshdan 14 yoshgacha boʻlgan maktab oʻquvchilarini birlashtirgan. Maʼlumotlarga koʻra, 2001-yilda tashkilotga 4,2 mlndan ortiq bolalar aʼzo boʻlib kirgan va har yili doimiy ravishda aʼzolari soni oshib borgan. “Kamalak” bolalar tashkiloti tomonidan bolalarning maktabdan tashqari toʻgaraklarga biriktirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Bundan tashqari tashkilot tizimida sardorlar kengashining faoliyati yoʻlga qoʻyilib, 2008-yilga kelib respublika boʻyicha 300 mingdan ortiq sardorlar faoliyat koʻrsatganligi qayd etilgan [12;29-b]. 2006-yildan keyingi davrda “Kamolot” YoIH faoliyatidagi ayrim kamchiliklar tashkilotga aʼzolik masalasining aniq tartiblari ishlab chiqilmadi va tartibga solinmadi. Asosan “rasmiyatchilik uchun” yirik va ommaviy tadbirlar oʻtkazishga eʼtibor qaratilgan. Tashkilot faoliyatida tezda katta natijalarga erishish va jamiyat oldida yuzaki obroʻ orttirishga intilish kuchaygan. Boshqa tomondan esa “Kamolot” YoIH kadrlari orasidan rahbar lavozimlarga zaxira kadrlar shakllantirilib borilgan. Ammo bu kadrlar orasidan juda ozchiligi keyingi faoliyatida ushbu natijaga erishgan xolos. Natijada “Kamolot” YoIH faoliyatida faol qatnashayotgan koʻplab yoshlarning harakatga boʻlgan ishonchi soʻnib borib, uning tarkibidan chiqib keta boshlashgan. Boshqa tarafdan, aynan “Kamolot” tizimida faoliyat yuritib, keyinchalik respublika boshqaruv organlarida, vazirlik va idoralarda rahbar lavozimlarda ishlaganlar ham mavjudligini taʼkidlash joiz.

“Kamolot” YoIH ning 2011-yil 23-dekabrda boʻlib oʻtgan III qurultoyida ham yoshlar tashkilotining 2006–2011-yillardagi faoliyati tanqidga uchradi. Keyingi yillarda tashkilot faoliyatini jonlantirish borasidagi vazifalar belgilandi. Shu tariqa 2012–2017-yillarda

harakatning ijtimoiy-huquqiy sohadagi loyihalari soni 5 barobar, unda ishtirok etganlar soni esa 8 barobar koʻpaydi. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga bagʻishlab oʻtkaziladigan “Biz buyuk yurt farzandlarimiz” shiori ostidagi festivalni alohida taʼkidlash lozim. “Kamolot” YoIH tomonidan yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazish uchun gazeta, televideniye va radio imkoniyatlaridan, maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlardan foydalanishga koʻproq urgʻu berildi. Ayniqsa “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan milliy madaniyatimizga yot boʻlgan odatlarning oldini olishga keng eʼtibor qaratildi. Maʼlumotlarga koʻra, 2016-yilda “Kamolot” YoIH faollari “ijtimoiy tarmoqlar buzgʻunchi gʻoyalarning tarqatilishi uchun qulay vosita”, degan vaj bilan oʻzbekistonlik yoshlar orasida “Facebook”, “Telegram” va “Одноклассники” kabi oʻsha vaqtda keng tarqalayotgan ijtimoiy tarmoqlarni taqiqlash taklifini ham oʻrtaga tashlagan [13]. Ammo harakat tomonidan bu kabi ijtimoiy tarmoqlarning texnik va boshqa imkoniyatlarini cheklash masalasi koʻrib chiqilayotganligi haqida notoʻgʻri axborot berilganligi haqida raddiya berilgan [14]. Qoʻshimcha qilinishicha, ushbu davrda harakat tomonidan internet tarmogʻidagi milliy qismlarni yanada boyitish hamda foydali resurslarni koʻpaytirish borasida qator ishlar amalga oshirilgan. “MIT.uz” – milliy internet tanlovi, talabalar internet harakati, “Intellect2all” – axborot texnologiyalari tanlovi kabi loyihalar esa misol sifatida keltirilgan.

2001-yilda tashkil etilgan “Kamolot” YoIH oʻtgan davr mobaynida yoshlar hayotiga kirib borib, ularning maʼlum bir qismini oʻz atrofida birlashtirishga, oʻz dasturi va ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni imkon darajasida bajarishga harakat qilib keldi. Tashkilot tomonidan yoshlarni har taraflama qoʻllab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning hayotda oʻz oʻrnini egallashiga koʻmaklashish boʻyicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan.

Oʻzbekistondagi turli yoshlar tashkilotlari muassisligida “Turkiston”, “Molodej Uzbekistana” , “Tong yulduzi” , “Klass” kabi gazetalar, “Yosh kuch”, “Sirli olam”, “Yoshlik”, “Sinfdosh”, “Gʻuncha”, “Gulxan” kabi jurnallar nashr etib kelingan [15;632-b]. Nashrlarning mazmuni maʼlum bir yosh toifalari uchun moʻljallangan boʻlib, ularda yoshlar va ayniqsa bolalarga foydali boʻlgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega, turli xil maqolalar, yangiliklar, hikoyalar, tanlovlar yoritilib kelingan. Hali internet va ijtimoiy tarmoqlar keng ommalashmagan chogʻlarda yuqoridagi kabi nashrlar yoshlar orasida tarqalib, qaysidir maʼnoda ularning axborotga boʻlgan ehtiyojlarini “qondirib keldi”, deyish mumkin.

Ayrim oʻrinlarda “Kamolot” YoIH faoliyatida qoʻlga kiritgan yutuqlari kamchiliklariga nisbatan koʻproq ekanligi, alohida yutuqlari sifatida yoshlar tizimida oliy taʼlim muassasalari, kollej-litseylar va maktablargacha yaʼni eng quyi pogʻonagacha bir qator loyihalar ommalashtirilganligini aytiladi. Bular qatoriga “Kamolot shaxmat taxtasi”, “Kamolot futbol kubogi” , “Munozara-debat klubi” , “Siz qonunni bilasizmi? ”, “Siz tarixni bilasizmi? ”, “Yosh chegarachilar” , “Shunqorlar” kabi 60 — 70 tacha loyihalar keltiriladi. Taʼkidlanishicha, bu kabi loyihalar butun yoshlar ommasiga emas, balki yoshlar qatlamning qaysidir bir vakiliga foydali boʻlgan. Boshqa tarafdan hukumat “Kamolot” YoIH harakatidan oʻzining ayrim “topshiriq” larini bajartirish uchun foydalanib kelganligi, ushbu vaziyatda harakat yoshlarga yoqmaydigan loyihalarni ham amalga oshirishga majbur boʻlgan. Misol uchun, uzoq yillar paxta yigʻim-terim jarayonlarida goʻyoki yoshlar faolligini oshirish uchun “Kamolot” YoIH aʼzolari masʼul etib tayinlangan. Muddatli harbiy xizmatni oʻtab kelib, toʻlov-kontrakt asosida oʻqishga kirgan va imtiyoz olayotgan talabalar ham “Kamolot” YoIH orqali majburiy obodonlashtirish ishlariga

jalb qilingan. Yoki boʻlmasa viloyat va tuman hokimliklari oʻzlarini ayrim tadbirlarida boʻsh joylarni toʻldirish uchun “Kamolot” YoIH ni “ishga solgan” [16]. Shuningdek, harakat tizimlari tomonidan mahallalardagi kam taʼminlangan oila farzandlari, nogiron bolalar, voyaga yetmaganlar nozirligi hisobida turgan oʻsmirlarga bepul darsliklar va kitoblar, oʻquv qurollari, kiyim-kechak, sport anjomlari va bolalarning yozgi dam olish oromgohlariga bepul, imtiyozli narxdagi yoʻllanmalar olib berilganligini xam alohida urgʻulash lozim [12;32-b]. Qayd etilishicha, 2016-yilning 1-yanvar holatiga, “Kamolot” YoIH ning 14 mingdan ortiq boshlangʻich tashkilotlari hamda 4 mln dan ortiq aʼzolari boʻlgan [17]. Biroq, ushbu raqamlar haqiqiy holatni aks ettirmagan, deb hisoblash mumkin. Chunki harakatning kuyi tizimlari oʻz hisobotlarda sunʼiy ravishda koʻrsatkichlarni yuqori koʻrsatishga intilib, aʼzolar sonini oshirib koʻrsatgan holatlar uchragan. Shu bilan birga, aʼzolikka qabul qilinganlarning yagona umumiy roʻyxatining yuritilmaganligi ham ushbu maʼlumotlarning ishonchli ekanligiga shubha bilan qarashga majbur qiladi. Umuman olganda, 2016-yil holatiga koʻra, adliya organlari roʻyxatidan oʻtgan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotlar soni 641 ta ekanligi, xususan “Yoshlar tashabbuslari” markazi, siyosiy partiyalar huzurida “Yoshlar qanot” lari kabi tashkilotlar ham faoliyat yuritishi qayd qilingan [18;46-b].

2017-yil 30-iyunda Oʻzbekiston “Kamolot” “Kamolot” YoIH ning IV qurultoyi boʻlib oʻtdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq soʻzlab, tashkilot faoliyatidagi jiddiy kamchilik va nuqsonlarni sanab oʻtdi. Taʼkidlanishicha, “Kamolot” butun Oʻzbekiston yoshlarini birlashtirgan, tom maʼnodagi ommaviy harakatga aylana olmagan. U asosan oʻz atrofida Harakat faoliyatiga xayrixoh boʻlgan yoshlarni uyushtirib, faqat ularni qiziqtirgan masalalar yuzasidangina ish olib borgan. “Kamolot” YoIH yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish boʻyicha oʻzini haqiqiy yoshlar tashkiloti sifatida koʻrsata olmadi. Buning sabablari oʻlaroq, “Kamolot”ni jamoat tashkiloti sifatida tuzib, lekin undan katta bir vazirlik vazifasini talab qilinganligi, unga juda keng va ulkan vazifalar topshirilib, ammo ularni bajarish uchun zarur huquqiy va amaliy vakolatlar, tegishli imkoniyat va imtiyozlar yaratib berilmaganligi taʼkidlandi. Shuningdek, tashkilot rahbarlari va xodimlari tomonidan ishga rasmiyatchilik bilan, yuzaki va loqayd munosabatda boʻlish, turli salbiy holatlarga yoʻl qoʻyilayotganligi, koʻpgina viloyat va tumanlarda “Kamolot” tashkilotlari uchun binolar yetishmasligi, ularning moddiy-texnik bazasi nochorligi, zarur mebel va inventarlar, aloqa va tashkiliy texnika vositalari bilan yetarlicha taʼminlanmagani, xizmat mashinalari yoʻqligi ham ishga salbiy taʼsir koʻrsatgan. Harakatning markaziy idorasida ham mehnat va hayot tajribasiga ega boʻlgan malakali kadrlarning etishmasligi, tizimda ishlayotgan xodimlarni moddiy ragʻbatlantirish va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga etarlicha eʼtibor berilmaganligi, shuningdek, oylik maoshlarining kamligi ham tashkilotning samarali faoliyatiga toʻsiq boʻlgan. Harakatning joylardagi tuzilmalari faoliyati tor doirada cheklanib, asosan oʻquvchi-yoshlarga qaratildi. Buning natijasida yoshlarning katta qismiga harakatning soʻzi ham, amaliy taʼsiri ham yetib bormagan. Ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishlash masalasi eʼtibordan chetda qolib ketgan [19].

Xullas, Oʻzbekistonda 1991–2016-yillar davomida turli nomlar ostida faoliyat yuritgan respublika darajasidagi yoshlar tashkilotlari bir qator ishlarni amalga oshirgan boʻlsa-da, ular faoliyatida bir-biriga oʻxshash, tizimli kamchiliklar kuzatilgan. Har bir tashkilot tugatilishida ular tomonidan yoʻl qoʻyilgan xato va muammolar aniq koʻrsatilgan boʻlsa-da, keyingi tashkilotlar ham xuddi shunday kamchiliklarni takrorlagani, tizimda chuqur ildiz otgan muammolar mavjud boʻlganligini koʻrsatadi. Buning sabablari oʻlaroq, respublikada yoshlar

bilan ishlash tizimi yaxshi yoʻlga qoʻyilmaganligi, “Yoshlar ittifoqi”, “Kamolot jamgʻarmasi”, “Kamolot” YoIH kabi nomlardagi tuzilmalarning tashkilot sifatida toʻliq shakllana olmaganligi, eng asosiysi, hukumat tomonidan ularga etarli darajada eʼtibor qaratilmaganligini keltirish mumkin. Chunki ushbu davr mobaynida faoliyat yuritgan hech bir tashkilotga davlat byudjeti hisobidan barqaror mablagʻ ajratilmagan. Bundan tashqari, tashkilotlar nomigagina yangilanib, tashkiliy tuzilmasi va faoliyat yoʻnalishlarida amaliy oʻzgarishlar qilinmagani, ish uslubi va mazmunining deyarli bir xil qolgani natijasida, ular yoshlar hayotida taʼsir oʻtkaza oladigan samarali kuchga aylana olmagan. Buning natijasida koʻpchilik yoshlar oʻzini chetda qolgan qatlam sifatida his qilib kelishgan. Koʻplab hollarda tashkilotlar “yuqoridan berilgan topshiriqlar” asosida ish olib borishgan. Boshqa tarafdan esa, tashkilotlar asosiy vazifasi hisoblangan yoshlar muammolari bilan ishlash, ular bilan toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot qilish oʻrniga hisobot uchun qoʻl keladigan “tadbirbozlik” ga koʻproq eʼtibor qaratishgan. Yuqoridagi kabi omillar ham ushbu davrda yoshlar bilan ishlashda samarali va tizimli yondashuvning yetishmaganligini koʻrsatadi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Тангриев Л.Х. Ёшлар сиёсат субъекти: бандлик муаммоси. Сиёсий фанлар номзод дисс.. – Тошкент, 2001.
2. Рахимов Ш.А. Ўзбекистон республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг амалга оширилиши (1991 – 2018 й.й): т.ф.ф.д. дисс... – Тошкент, 2020.
3. “Туркистон”, 1992-1993-yillar sonlari.
4. Шермухаммадов Б.Ш. Ёшлар орасида миллий ғоя тарғиботи самарадорлигини ошириш (“Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракати фаолияти мисолида): п.ф.д. дисс... – Тошкент, 2016.
5. Туркистон, 1993 йил, 20 апрел.
6. Ўзбекистон овози, 26 март, 2001 йил.
7. Oʻzbekiston yoshlarining “Kamolot” ijtimoiy harakati faoliyatini tashkil etishga koʻmaklashish toʻgʻrisida. Vazirlar Mahkamasining 30.05.2001 yildagi 240-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/328187
8. “Oʻzbekiston belgisi” koʻkrak nishoni toʻgʻrisidagi nizomga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida. 04.08.2003 yildagi PF-3290-son farmon https://lex.uz/docs/175180
9. Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni oʻtayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida. 31.10.2005 yildagi PQ-213-son qaror https://lex.uz/docs/899316?otherlang=1
10. Yosh oilalarni moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida. 18.05.2007 yildagi PF-3878-son farmon. https://lex.uz/ru/docs/1200664
11. Mamlakatning ijtimoiy hayotida faol qatnashayotgan yosh oilalarni uy-joy bilan taʼminlashni yanada qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida. Vazirlar Mahkamasining 08.09.2014 yildagi 250-son qarori https://lex.uz/docs/-2458685
12. Топилдиев О. Ёшлар – келажак бунёдкорлари.–Наманган, 2013. – 158 б;
13. https://oz.sputniknews.uz/20160121/1603176.html Murojaat sanasi 10.04.2025.
14. https://kun.uz/news/2016/01/22/%E2%80%9Ckamolot%E2%80%9D-yoshlar-ijtimoiy-harakati-ijtimoiy-tarmoqlar-ishi-cheklanganligi haqidagi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2016%2F01%2F22%2F%E2%80%9Ckamolot%E2%80%9D-yoshlar-ijtimoiy-harakati-ijtimoiy-tarmoqlar-ishi-cheklanganligi-haqidagi Murojaat sanasi 10.04.2025.
15. N.Joʻrayev. Oʻzbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob. – Toshkent: “Sharq” , 2011. – 736 b;

16. Ta’limni inqirozga eltgan sabablar, adolatsiz test tizimi va “Kamolot” haqida https://www.youtube.com/watch?v=VH5NEif5FtY Murojaat sanasi 10.04.2025.
17. https://kun.uz/news/2016/01/22/%E2%80%9Ckamolot%E2%80%9D-yoshlar-ijtimoiy-harakati-ijtimoiytarmoqlar-ishi-cheklanganligi-haqidagi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2016%2F01%2F22%2F%E2%80%9Ckamolot%E2%80%9D yoshlar-ijtimoiy-harakati-ijtimoiy-tarmoqlar-ishi-cheklanganligi-haqidagi Murojaat sanasi 10.04.2025.
18. Ўзбекистон ёшлари мустақиллик йилларида : фанлараро ўрганиш муаммолари. – Тошкент: “Наврўз”, 2018. – 224 б;
19. Prezident Shavkat Mirziyoevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi https://president.uz/oz/lists/view/729 Murojaat sanasi 10.04.2025.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).